https://buxdu.uz

# “JISMONIY MADANIYAT VA SPORT: TA’LIM DASTURLARINI TAKOMILLASHTIRISH, MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

# ФИЗИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА И СПОРТ: СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПРОГРАММ, ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

# PHYSICAL CULTURE AND SPORT: IMPROVING EDUCATIONAL PROGRAMS, PROBLEMS AND SOLUTIONS

## Xalqaro miqyosidagi ilmiy amaliy-anjuman



2023-yil 1-2-may

Сканировано с CamScanner

https://buxdu.uz


**"INSONGA E'TIBOR VA SIFATLI TA'LIM"** yiliga bag'ishlangan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 7 martdagi 101- son farmoyishiga asosan Buxoro davlat universitetida xalqaro hamkorlar ishtirokida 2023 yil 1-2 may kunlari "jismoniy madaniyat va sport: ta'lim dasturlarini takomillashtirish, muammolar va yechimlar" mavzusida Respublika ilmiy retsenziyalangan onlayn-konferensiya o'tkaziladi.

**Anjumanning maqsadi:** Yosh avlodning harakat faolligini optimallashtirish muammolarini hal etishning yangi yo'llarini izlash, ularning jismoniy tayyorgarligi hamda jismoniy tarbiyasi jarayoniga yangi shakllar va metodlarni joriy qilish bobida metodologik va uslubiy sharoitlarini o'rganish.

**Anjumanning tashkiliy qo'mitasi:**

**DASTURIY QO'MITA**

| | | |
|---|---|---|
| 1 | O.X.Xamidov | BuxDU rektori, rais |
| 2 | R.T.Rasulov | BuxDU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, rais muovini |
| 3 | B.B.Ma'murov | Jismoniy madaniyat fakulteti dekani, a'zo |
| 4 | R.S.Shukurov | Sport nazariyasi va metodikasi kafedrasi mudiri, a'zo |
| 5 | A.E.Sattorov | Sport faoliyati kafedrasi mudiri, a'zo |
| 6 | R.X.Kadirov | Sport nazariyasi va metodikasi kafedrasi professori, a'zo |
| 7 | M.M.Turayev | Sport nazariyasi va metodikasi kafedrasi dotsenti, a'zo |
| 8 | X.N.Xakimov | Sport nazariyasi va metodikasi kafedrasi dotsenti, p.f.f.d.(PhD), a'zo |
| 9 | N.I.Davronov | Sport nazariyasi va metodikasi kafedrasi dotsenti, p.f.f.d.(PhD), a'zo |
| 10 | A.Sh.Inoyatov | Sport nazariyasi va metodikasi kafedrasi dotsenti, p.f.f.d.(PhD), a'zo |
| 11 | F.B.Muzaffarova | Sport nazariyasi va metodikasi kafedrasi dotsenti, p.f.f.d.(PhD), a'zo |
| 12 | Q.Q.Qobiljonov | Sport nazariyasi va metodikasi kafedrasi o'qituvchisi, a'zo |
| 13 | I.I.Saidov | Sport nazariyasi va metodikasi kafedrasi dotsenti, p.f.f.d.(PhD), kotib |

**II TAShKILIY QO'MITA**

| | | |
|---|---|---|
| 1 | B.B.Ma'murov | Jismoniy madaniyat fakulteti dekani, a'zo |
| 2 | B.B.Qobilov | BuxDU xodimlar va talabalar kasaba uyushmasi raisi, a'zo |
| 3 | U.U.Rashidov | BuxDU moliya va iqtisodiyot ishlari bo'yicha prorektori, a'zo |
| 4 | G.T.Zaripov | BuxDU I va IPKT bo'limi boshlig'i, a'zo |
| 5 | R.S.Shukurov | Sport nazariyasi va metodikasi kafedrasi mudiri, a'zo |
| 6 | A.E.Sattorov | Sport faoliyati kafedrasi mudiri, a'zo |
| 7 | Q.P.Arslonov | Sport nazariyasi va metodikasi kafedrasi professori, a'zo |
| 8 | G'.M.Salimov | Sport nazariyasi va metodikasi kafedrasi professori, a'zo |
| 9 | Sh.Dj.Abdullayev | Sport nazariyasi va metodikasi kafedrasi dotsenti, a'zo |
| 10 | M.M.Turayev | Sport nazariyasi va metodikasi kafedrasi dotsenti, a'zo |
| 11 | I.I.Saidov | Sport nazariyasi va metodikasi kafedrasi dotsenti, a'zo |
| 12 | A.T.Toshev | Sport nazariyasi va metodikasi kafedrasi dotsenti, a'zo |
| 13 | R.S.Baymuradov | Sport faoliyati kafedrasi dotsenti, a'zo |
| 14 | M.B.Ibragimov | Sport faoliyati kafedrasi dotsenti, a'zo |
| 15 | D.I.Kurbanov | Sport faoliyati kafedrasi dotsenti, a'zo |
| 16 | H.H.Qurbonov | Sport faoliyati kafedrasi o'qituvchisi, a'zo |

Barcha ma'ruza tezislari (maqolalar) tahririyat tomonidan anonimlashtirilgan holatda tekshiriladi va tekshiruvdan ijobiy o'tgan ma'ruza tezislari nashr etiladi hamda har bir muallifga elektron SERTIFIKAT beriladi. Ma'ruza tezislarida berilgan ma'lumot uchun mualliflarning o'zlari javobgar hisoblanishadi.

Mazkur ilmiy amaliy-anjuman konferensiyada professor-o'qituvchilar va ilmiy tadqiqotchilar jismoniy tarbiya va sport yo'nalishida o'z ilmiy izlanishlari natijasida tayyorlangan ma'ruza tezislari (maqolalar) bilan qatnashadi

Сканировано с CamScanner

https://buxdu.uz



harakat qiladi, ikkinchisi esa qarshilik ko'rsatadi. 20-30 soniyadan so'ng kurashchilar rollarni o'zgartiradilar.

**Adabiyotlar:**

1. Абдуллаев Ш.Дж. Кураш турлари ва уни ўқитиш методикаси (Самбо). Ўқув қўлланма. Бухоро "Дурдона" нашриёти, 2022:- 232 бет.
2. Абдуллаев Ш.Дж. Кураш турлари ва уни ўқитиш методикаси (Самбо). Darslik. Buxoro "MUXAMAD POLIGRAF" nashriyoti, 2023:-452 bet.
3. Керимов Ф.А. Спорт кураши назарияси ва усулияти. Тошкент, 2005
4. Колодников И. П. Борьба самбо. -М. : Воениздат, 1960. - 80 с.
5. Харлампиев А. А. Борьба самбо. -М. : Физкультура и спорт, 1964. - 388 с.
6. Харлампиев А. А. «Система самбо.» М.: Фаир-пресс (2002).
7. Зезюлин Ф. М. Самбо. Учебно-методическое пособие. - Владимир, 2003. - 180 с.

Чумаков Е.М. 100 уроков борьбы самбо. - Издание. 3-е исправл. дополн. Москва, Физкультура и спорт, 1988. - 304 с.

**Babamuradova Nargiza Jurayevna**

*Buxoro davlat universiteti,Tabiiy fanlar Ekologiya va geografiya kafedrasi o`qituvchisi Buxoro, O'zbekiston*

## UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI O'QUV FANLARIDAGI INTEGRATSIYA JARAYONLAR

**Annotasiya:** Ushbu tezisda umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quv fanlaridagi integratsiya jarayonlari qanday amalga oshirish tarixy yondashular to`g`risida ochib berilgan.

**Kalit so`zlar:** Integratsiya, klassik pedagogika, differensatsiya, integrativ.

Integratsiya - «butun» degan ma'noni bildiradi, demak, bu tafakkur o'sishi jarayonining turli qism va elementlarini bitta butunga birlashtirish bo'lib hisoblanadi. Integratsiya fanlarning mexanik birlashishi emas, bu sintez, yangi narsaning kelib chiqishi, kashfiyotdir. Alohida tizimlarning yaqinlashishi, bog'lanishi va yagona bir yangi narsaning yaratilishidir.

Integratsiya jarayonining ildizi uzoq o'tmishdagi klassik pedagogikaga borib taqaladi hamda fanlararo bog'liqlik g'oyasi bilan ifodalanib, o'quv materialini mazmunini o'rganish, tabiatni yaxlit bir butun sifatida talqin qilishni nazarda tutadi.

Integratsiya jarayoni differensatsiya bilan mustahkam aloqaga ega bo'lib, mazkur jarayonlar o'quv fanlarining tanlanishida, tuzilishida va o'quvchilar bilimini umumlashtirishda o'z aksini topadi.

«Integratsiya - differensiatsiya jarayonlaridagi fanlarning o'zaro yaqinlashuvi va bog'liqligida ko'rinadi. Integratsiya jarayoni fanlararo bog'liqlikning yuqori shaklida namoyon bo'ladi

Fanlarni integratsiyalab o'qitish muammosini hal etish uchun fanlarning paydo bo'lishi tarixi va ularning taraqqiy etishini anglab yetmoq zarur. Buning uchun fanlarning rivojlanish tarixini bilish lozim. Ana shunda fanlarni integratsiyalab o'qitish muammosining hozirgi holatini, fanlarning paydo bo'lish tarixi va taraqqiyoti qanday bo'lganligini, kelgusida qanday fanlar bo'lishi lozimligi haqida fikr yuritish mumkin.

Fanlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi jamiyatning tarixiy rivojlanishi bilan bog'liq. Insoniyat rivojlanishining dastlabki bosqichlarida odamlar tabiat haqida to'liq tasavvurga ega bo'lmaganlar, atrof-muhitda sodir bo'ladigan hodisa, jarayonlarni kuzatuvchilari bo'lishgan, xolos. Keyinchalik hodisa, jarayonlarning sodir bo'lishini kuzatibgina qolmay, ma'lumotlar to'plab, tahlil qila boshlaganlar.

Insonlarning ehtiyojlari, mehnat qurollarining takomillashib borishi, tevarak atrofdagi olam to'g'risida tasavvurlarning rivojlanishi, tabiat hodisalarga munosabatning shakllanishi, to'plangan bilimlarni, tajribalarni yig'ish zaruriyati vujudga keldi.

Qadimgi Yunoniston va Sharqda (eramizdan oldingi VI-V asrlar ("Avesto") falsafa bilan birgalikda naturfalsafa ham yuzaga kelgan. Tabiiyotni fan sifatida rivoj topishi (eramizdan oldingi, 384-322 yillar) Aristotelning "Fizika", "Metafizika" asarlarida o'z aksini topgan. Fanlarning paydo bo'lishi, taraqqiyoti, tarmoqlanishi, ularning o'zaro ta'siri natijasida yangi hosilaviy fanlarning paydo bo'lishini quyidagi modul orqali ifoda etish mumkin.

Ta'lim integratsiyasining bosh maqsadi - shaxsni har tomonlama kamol topishini ta'minlashning muhim prinsipi sifatida maydonga keldi. Integratsiyalashgan ta'lim shaxsni intellektual va madaniy rivojlantirishning bosh omili bo'lib qoldi. Fransuz olimi Dj.Dyuining fikricha, "Ayni paytda ta'limda uning og'irlik markazini siljitishga qaratilgan o'zgartirishlar boshlandi.



Сканировано с CamScanner

https://buxdu.uz



V.I.Zverev integratsiyani uzviy bog'lanish, yaxlitlikni yaratish, turli o'quv predmetlari elementlarini uyg'unlashtirish asosida yagona sintezlash jarayoni, deb tushuntiradi.

Ta'limda bilimlar integratsiyasining muhim ahamiyati haqida L.V.Tarasov: "ITI davrida fan, texnika va xo'jalik mexanizmlarini biosfera bilan chambarchas bog'liqligini, "tor doirali" mutaxassisliklar tomonidan ko'rmaslik asosida muammolarni bir tomonlama yechish, jamiyat uchun juda qimmatga tushadi. Ta'limda integratsiya, eng avvalo, fanlararo aloqani keskin rivojlantirishni, turli fanlarni o'zaro hamkorlikda o'qitishdan, ularni chuqur o'zaro ta'sirlashishiga o'tishini taqoza qiladi", deb uqtiradi.

G.F.Fedorsovning integrativ - tematik yondashuvi ham fanlarni integratsiyalab o'qitishning pedagogik asoslari bo'lib hisoblanadi. Integrativ - tematik yondashuvda o'quv jarayonining mazmuni, metodik va tashkiliy birligi sifatida o'quv fanining mavzusi (bo'limi) olinadi. Har bir mavzuning yetakchi g'oyalari bir tomondan kursning yetakchi g'oyalariga tegishli bo'ladi, ikkinchi tomondan bu g'oyalar mohiyatini ochib beradi, ya'ni mavzuni o'rganish jarayonida yetakchi g'oyalar aniqlashtiriladi. O'quv fanining yetakchi g'oyalari (tushunchalar, qonunlar, hodisalar va nazariyalar) o'rganadigan materiallarning mohiyatini ifodalaydi, ichki birligi va organik yaxlitligini ta'minlaydi. Bunday yondashuv o'qitishni sermazmun va metodik birlikdagi uyushgan, samarali tashkil etishga yordam beradi.

A.N.Zaxlebniy va M.V.Reshkovlar fanlarni integratsiyalashni maktabdagi alohida fanlar mazmunida o'quv dasturi va darsliklardagi bog'lanishlarni hisobga olgan holda amalga oshirish lozimligini ta'kidlaydi.

Ta'limdagi integratsiyaning mohiyati nima bilan xarakterlanadi?

«Integratsiya» tushunchasi ta'lim jarayoniga tatbiq etilganda ikkita ma'noni anglatadi: birinchidan, bu maktab o'quvchilarida bizni o'rab turgan atrof-olamni bir butunlikda deb qabul qilinishiga erishish (bunda integratsiya ta'lim maqsadi sifatida maydonga chiqadi); ikkinchidan, fanga doir bilimlarni umumiy jihatlarini

yaqinlashtirish (bunda integratsiyaga ta'lim vositasi sifatida qaraladi).

O'rganilgan ilmiy, pedagogik va metodik manbalar shundan dalolat beradiki, boshlang'ich ta'lim tizimiga integratsion yondashuv muammosi o'ta dolzarb muammo bo'lib, bu borada bir qator ishlar olib borilmoqda.

Nazariy ma'lumotlar bilan bir qatorda ko'plab metodik manbaalarda bir talay darslar ishlanmasi e'lon qilinib, unda turli fanlarga, turli mavzularga murojaat qilinmoqda.

Ta'limda integratsiyani amalga oshirishning asosiy muammolaridan biri, bu integrativ darslarning tuzilishini ko'rsatishga qaratilgan dars ishlanmalari, metodik yo'riqnomalarning mavjud emasligidir.

Ta'limda integratsiyani amalga oshirishga doir tegishli uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqish va uni amaliyotga tadbiq etish bugungi kunning muhim pedagogik muammolaridan biridir.

Adabiyotlar:

Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik maxorat. Toshkent TDPU. 2003 yil.

Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat (O'quv qo'llanma). – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006 y. – 160 b.

R.A.Mavlonova, N.Raxmonqulova "Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi" T.: Ili-Ziyo 2009 y.

R.A.Mavlonova N.Raxmonqulova "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi innovatsiyasi va integratsiyasi. T.: G'.G'ulom 2013 y.

**Babamuradova Nargiza Jurayevna**
**BuxDU Ekologiya va geografiya kafedrasi o`qituvchisi**

## AHOLINI OMMAVIY SOG'LOMLASHTIRISHDA JISMONIY MASHQLARNING O'RNI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada aholini ommaviy sog'lomlashtirishda jismoniy mashqlarning o'rni va ahamiyati borasida ma'lumotlar keltirilgan

**Kalit so'zlar**: ma'naviy teran, axloq-odob, yosh avlod kamoloti, Suqrot, Aflotun, Arastu, salomatlik darajasi, jismoniy tayyorgarlik holati.

Respublikada oxirgi yillarda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, imkoniyatlari cheklangan shaxslarning jismoniy reabilitatsiyasi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish hamda mamlakatning xalqaro sport maydonlarida munosib ishtirok etishini ta'minlash borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.



Сканировано с CamScanner

https://buxdu.uz



Tagirova Natalya Petrovna, Qobiljonov Qosimjon Qobiljonovich. Actual Problems of Teaching Physical Education at School ........ 58
Umarov.A.T. THE COURSE OF THE UZBEK NATIONAL STRUGGLE DURING THE TIMURID PERIOD AND PRESENT TIME. ........ 62
Умаров С.М. ЭФФЕКТИВНАЯ ПРОДОЛЖИТЕЛЬНОСТЬ ТРЕНИРОВКИ НА ЭТАПЕ МАКСИМАЛЬНОЙ РЕАЛИЗАЦИИ ИНДИВИДУАЛЬНЫХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ........ 65
Ханкельдиев Ш.Х., Каримов Д.К. ИССЛЕДОВАНИЕ КУМУЛЯТИВНОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ МЕТОДИКИ ДВИГАТЕЛЬНО-ТЕХНИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВЛЕННОСТИ ЮНЫХ АКРОБАТОВ ... 66
Zafarjon Yusupov. MARKAZIY O'YINCHILARNI SARALASHDA TEXNIK-TAKTIK XARAKATLARNI NAZORAT QILISHNING VOSITA VA USLUBLARI ........ 70

**2-sho'ba: Jismoniy tarbiya, sport va sog'lomlashtirishning tibbiy-biologik, pedagogik-psixologik diagnostika va korreksiya usullari.** ........ **72**
А.Абдуллаев, Ж.Абдуллаев. АТРОФ – МУҲИТ, ТУРТ МУЖЖАНИНГ СОҒЛИГИ, ВАҚТ РИТМЛАРИ, "ФУТУВАТЧИЛИК" АЖДОДЛАРИМИЗ ТУРМУШ ТАРЗИДА ........ 72
*Abdullaev Sh.DJ.* DASTLABKI SPORT TAYYORGARLIK GURUHLARIDA SAMBO KURASHI MASHG'ULOTI TASHKIL ETILISH ........ 75
Babamuradova Nargiza Jurayevna. UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI O'QUV FANLARIDAGI INTEGRATSIYA JARAYONLAR ........ 78
Babamuradova Nargiza Jurayevna. AHOLINI OMMAVIY SOG'LOMLAShTIRIShDA JISMONIY MAShQLARNING O'RNI ........ 79
R.Z.Berdimuratov, Jumabaev.D. Sportchilarni sog`lig`ini mustahkamlashda jismoniy tarbiya gigienasining ustuvor yo`nalishlari ........ 81
Н.Ж.Бобомуродова, М.Қ.Ходжиева. АЖДОДЛАР МЕРОСИДА БАРКАМОЛ ИНСОН САЛОМАТЛИГИ ҒОЯСИ ........ 84
M.Ibragimov. EDUCATION OF THE PHYSICAL QUALITIES OF A BOXER ........ 85
Инаков Б.Т. "13-14 ЁШЛИ БИАТЛОНЧИЛАРНИНГ УМУМ ТАЙЁРГАРЛИК БОСҚИЧИДА МАХСУС ЎҚ ОТИШ ТАЙЁРЛИГИНИ ИШЛАБ ЧИҚИШНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ" ........ 88
Кадиров Рашид Хамидович, Ахмедова С.А., Самиев С.С., Шарипов Б.А. ТЕСТИРОВАНИЯ И ОЦЕНКА В ПРОЦЕССЕ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ И СПОРТИВНЫХ ТРЕНИРОВОК ........ 90
Кадиров Рашид Хамидович. ГУМАНИТАРНОСТЬ ПРИОБШЕНИЯ СТУДЕНТОВ В НАУЧНО - ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ........ 94
Kurbanov Djurabek Ismatovch, Qobiljonov Qosimjon Kobiljon o`g`li. O'QUVCHILARNING JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHGA YO`NALTIRILGAN O'QUV JARAYONINI LOYIHALASH ........ 100
Мурадов Джахангир Джураевич, Мурадова Мадина Джахангир кизи. ВЗАИМОСВЯЗЬ СПОРТИВНОГО И СПОРТИВНО-ОЗДОРОВИТЕЛЬНОГО ТУРИЗМА ........ 102
Нарзуллаевна Рушана Раззаковна, Фармонова Малика Аъзам қизи, Кадиров Рашид Хамидович. Умумий ўрта таълим мактабларида адаптив жисмоний тарбиянинг ташкилий-услубий хусусиятлари ........ 104
Кобилжонов Косимжон Кобилжонович, Нарзуллаева Рушана Разоковна. Бахшуллаев Асилжон. ФОРМИРОВАНИЕ ЗДОРОВОГО ОБРАЗА ЖИЗНИ В СОВРЕМЕННОМ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОСТРАНСТВЕ ........ 110
Қойлыбаев Байрамбай Далибаевич. ЕНГИЛ АТЛЕТИКАНИНГ 800 МЕТРГА ЮГУРУВЧИЛАРНИ ТАНА ТАРКИБИНИ ТУЗИЛИШИНИ АНИҚЛАШ ........ 113
Qo'ziyeva Feruza Ismoilovna, Lutfullayev Muxsin Dilmurot o'g'li. AHOLI ORASIDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISH NAZARIYASI VA METODIK ASOSLARI ........ 115
Qurbonov Jurabek Ismatovich, Sayfutdinov Umar Tojiddinovich. JISMONIY TARBIYA , SOG`LOM TURMUSH TARZINI SHAKILLANTIRISHDA ASOSIY VOSITA ........ 117
Kurbanov Shuhrat Koldoshovich, Bakhshullayev Asiljon. PHYSICAL TRAINING OF YOUNG ATHLIETES AND ITS IMPORTANCE ........ 119
Radjapov Usmonbay Raximovich, Azamatova Dilnavoz Mirjabborovna. Umumiy o`rta ta`lim maktab o`quvchilarining gimnastika mashqlari orqali koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik ahamiyati ........ 121
Radjapov Usmonbay Raximovich, Tillayev Bobur Farxod o`g`li. Harakatli o'yinlar yordamida yosh voleybolchilarni tanlash usullarітштп ahamiyati ........ 124



Сканировано с CamScanner